

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

**PATENT KOOPERATSIYASI TO‘G‘RISIDAGI (PST) SHARTNOMANING  
FAKULTATIV FAZASI**

**Toshkent– 2024**

Ma'lumki, ixtirolarning yaratilishi ko'pincha bozorning real ehtiyojlaridan ilgarilab ketadi. O'rtacha har 100 ta patentga 15-20 tadan ko'p bo'lmagan muvaffaqiyatli amalga oshiriladigan ixtirolar to'g'ri keladi. Biroq talabnoma beruvchi har doim patentlashni tezroq boshlashi kerak, aks xolda raqobatchilarning shu kabi o'xshash ixtiroga talabnoma berib, o'ndan o'zib ketish xavfi mavjud. Shuning uchun talabnoma beruvchi har doim ikki vazifani hal qilishga intiladi: ixtiro uchun ustuvorlikni, ya'ni raqobat kurashida ustunligini o'zida saqlab qolish va ixtirodan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatlarini imkon qadar batafsil ishlab chiqish.

PSTdan foydalanish talabnoma beruvchiga ko'rsatilgan vazifalarni hal qilish uchun: (xalqaro talabnomaning ustuvorlik sanasidan boshlab) 20 oydan iborat imtiyozli muddat beradi. Biroq u ushbu 20 oylik muddat davomida ularni to'la hal qilishga ulgura olmaydigan vaziyatlar ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, talabnoma beruvchi xalqaro qidiruv natijalarini o'zi uchun to'liq ravishda yetarli deb hisoblamasligi mumkin va milliy fazaga kirishdan oldin o'z ixtirosining patentga layoqatliligi to'g'risida anid xulosa olishni xohlaydi. Bunday xulosa talabnoma beruvchi xalqaro qidiruvning salbiy natijalari (masalan, ixtiro darajasi bo'yicha natijani olganidan keyin ixtiro formulasiga tegishli o'zgartirishlarni kiritish o'ta muhimdir).

Bunday holatlarda talabnoma beruvchi PSTning fakultativ fazasidan foydalanishi mumkin.

Fakultativ fazaning mohiyati shundan iboratki, PST tizimi talabnoma beruvchiga o'z xohishiga ko'ra xalqaro talabnomaning milliy fazaga kirishining 20 oylik muddatini yana 10 oyga uzaytirishga imkoniyat beradi. Bu muddat davomida uning talabnomasi bo'yicha xalqaro dastlabki ekspertiza o'tkazilib, u talabnoma berilayotgan ixtironing patentga layoqatlilik mezoniga mos kelishi to'g'risida xulosa beriladi.

PST fakultativ fazasining tartiblaridan foydalanish uchun talabnoma beruvchi xalqaro dastlabki ekspertizani o'tkazish talablari o'rnatilgan shakl bo'yicha to'ldirishi va uni talabnomaning ustuvorlik sanasidan 20 oy o'tmasidan ilgari bevosita xalqaro dastlabki ekspertiza organiga jo'natishi kerak.

Odatda, xalqaro qidiruvni o'tkazadigan idoralarning o'zi xalqaro ekspertiza organlari hisoblanadi.

Talabnoma beruvchi ko'rsatilgan talablarda fakultativ faza tugaganidan keyin milliy fazasiga kirmoqchi bo'lgan davlatlarni aniqlaydi. Bunday davlatlar faqat xalqaro talabnomada ko'rsatib o'tilgan davlatlar orasidan tanlanishi mumkin.

PSTning Xalqaro dastlabki ekspertizasini imzolamagan davlatlarni talabnoma beruvchi tanlanishi mumkin emas. Xuddi shunday, ushbu davlatlarning talabnoma beruvchilari PST fakultativ fazasining afzalliklaridan foydalana olmaydilar.

Talablarni to'ldirib topshirish bilan bir vaqtda belgilangan miqdorda tegishli bojlar ham to'lanadi.

Xalqaro dastlabki ekspertiza umumlashtirilgan umumqabul qilingan PST mezonlari bo'yicha va odatda, xalqaro qidiruv to'g'risidagi hisobotda qayd etilgan axborot manbalari asosida o'tkaziladi. Ekspertizaning natijasi ixtiro yangi hisoblanishi yoki hisoblanmasligi, ixtiro darajasiga egaligi yoki ega emasligi va sanoatda qo'llanilishi mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi xulosa hisoblanadi. Xulosaga ko'ra tasdiqlovchi hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek tegishli tushuntirish va izohlar ilova qilinadi (albatta, ular mavjud bo'lsa).

Ta'kidlab o'tish kerakki, bunday ekspertiza uning xulosasi milliy patent idoralari uchun majburiy emasligi sababli dastlabki deb ataladi. PSTga muvofiq, milliy faza jarayonida ixtiyoriy davlat talabnoma berilayotgan ixtironing patentga layoqatliligini ekspertizadan o'tkazayotganda qo'shimcha yoki boshqa mezonlarni qo'llanishga haqlidir. Biroq amaliyotda bunday xulosa milliy idoralarning

ekspertizasi tomonidan mohiyatiga ko‘ra ekspertizani o‘tkazishni osonlashtiradigan va tezlashtiradigan tavsiya hujjati sifatida qabul qilinadi.

Ekspertizani o‘tkazish jarayonida talabnoma beruvchi uning talabnomasini ko‘rib chiqayotgan xalqaro ekspert bilan og‘zaki yoki yozma aloqa bog‘lash hududiga ega. Masalan, talabnoma bilan tanishib chiqqandan keyin ekspertda qandaydir savollar tug‘ilsa, talabnoma beruvchiga tegishli so‘rovlar, izohlar, takliflar yuborilishi mumkin va hokazo. PSTda ta’kidlanishicha, ekspertiza o‘zining yakuniy xulosasini chiqargunga qadar talabnoma beruvchiga o‘z fikri va takliflarini kamida bir marta yozma ravishda xabar qilishi kerak.

Talabnoma beruvchi ekspertizaning so‘roviga javoban ixtironing formulasi, tavsifi va chizmalariga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Ta’kidlab o‘tish kerakki, bunday o‘zgartirishlar dastlabki berilgan xalqaro talabnomada ochib berilgan doiradan chetga chiqmasligi kerak va xalqaro dastlabki ekspertizaning xulosasi tayyorlanganidan keyin kiritilishi mumkin emas. Talabnoma beruvchining xalqaro dastlabki ekspertiza organi bilan bog‘liq barcha ish yuritish tartibi o‘ta maxfiy xarakterga ega. Xalqaro byuro va Xalqaro dastlabki ekspertiza organi talabnoma beruvchining iltimosi yoki roziligisiz uchinchi shaxslar (shu jumladan boshqa tashkilot)ga ekspertiza materiallari bilan tanishishga ruxsat berishga haqli emas, shuningdek ularga ekspertiza xulosasini tuzish jarayoni to‘g‘risida dam axborot bermaydi.

PSTga muvofiq xalqaro dastlabki ekspertizaning xulosasi, odatda, xalqaro talabnoma ustuvorligi sanasidan boshlab 29 oydan kechikmasdan tuzilgan bo‘lishi kerak. Xulosa tayyor bo‘lganidan keyin xalqaro dastlabki ekspertiza organi uni talabnoma beruvchi va xalqaro byuroga jo‘natadi. O‘z navbatida, Xalqaro byuro bu xulosani tanlangan har bir idoraga tarqatadi.

Xalqaro dastlabki ekspertiza natijalari bo‘yicha talabnoma beruvchi uning patenti kuchli bo‘lishi yoki unga milliy fazaga umuman kirmaslik kerakligi

to'g'risida yetarli ravishda qat'iy kafolat oladi. U ushbu xulosalarga qarab Xalqaro talabnomaning milliy fazaga kirishi yoki uning chaqirib olinishi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Milliy fazaga kirish to'g'risida qaror qabul qilinganda talabnoma beruvchi tanlangan har bir davlatda patent vakilini topishi, talabnomaning milliy tildagi tarjimasini taqdim etishi hamda milliy patent bojlarini to'lashi kerak.

PSTga muvofiq, milliy fazaga kirish uchun zarur hatti harakatlar talabnomaning ustuvorlik sanasidan 30 oy o'tguncha bajarilishi kerak. Biroq milliy patent idoralari, odatda, milliy fazaga kirishning eng oxirgi muddati sifatida Xalqaro talabnomaning ustuvorlik sanasidan boshlab 31 oyni belgilaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlab o'tish kerakki, PST tizimi bo'yicha xalqaro talabnomalarni berish ixtirolarni xorijda muhofaza qilishning tez rivojlanib borayotgan tartibi hisoblanadi.